ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQUVISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinovna	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОЦЕНКА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ UZAUTO MOTORS.....	996
Шарипов К.А., Зайнутдинова У.Дж.	
XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA BANDLIK BILAN TA'MINLASHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA MUAMMOLAR TADQIQI.....	1005
Mirzayev Qulmamat Djonuzokovich, Saparov Murod Irgashovich	
YO'LOVCHI TASHISH XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1010
Alisher Kurambayev	
SUG'URTA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TAKAFUL SUG'URTASINING O'RNI VA IMKONIYATLARI.....	1014
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....	1020
Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	



UDK 640.4:330.341.1

MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)

Usmanova Gulida Valiyevna

Namangan davlat universiteti

"Moliyaviy munosabatlar" kafedrası o'qituvchisi

Email: bibisoraozodbek@gmail.com

[ORCID](#): 0009-0009-7585-520X

Annotatsiya. Mazkur maqolada mehmonxona biznesida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — mehmonxona xizmatlari sifatini oshirishda innovatsiyalarning o'ri va ahamiyatini aniqlash hamda ularning xizmat ko'rsatish samaradorligiga ta'sirini baholashdan iborat. Maqolada mehmonxona sohasida qo'llanilayotgan zamonaviy raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, mijozlar bilan aloqani boshqarish (CRM) tizimlari va mobil ilovalarning ahamiyati tahlil qilingan.

Shuningdek, Namangan viloyatidagi mehmonxonalar faoliyati misolida innovatsion faoliyatning hozirgi holati o'rganilib, empirik tahlil asosida xizmat sifati va mijozlar qoniqishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion texnologiyalarni joriy etish mehmonxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Maqola yakunida sohaga oid amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mehmonxona biznesi, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, xizmat ko'rsatish sifati, raqobatbardoshlik, mijozlar qoniqishi, boshqaruv samaradorligi.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of implementing innovative technologies in the hotel business. The main objective of the study is to identify the role and importance of innovations in improving the quality of hotel services and to assess their impact on service efficiency. The article analyzes the significance of modern digital technologies, automated management systems, customer relationship management (CRM) systems, and mobile applications used in the hospitality industry.

In addition, using the example of hotels operating in the Namangan region, the current state of innovative activity is examined, and based on empirical analysis, the factors influencing service quality and customer satisfaction are identified. The research findings substantiate that the implementation of innovative technologies contributes to increasing the competitiveness of hotels, reducing operational costs, and optimizing service delivery processes. The article concludes with practical proposals and recommendations for the development of the industry.

Key words: hotel business, innovations, digital technologies, service quality, competitiveness, customer satisfaction, management efficiency.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты внедрения инновационных технологий в гостиничном бизнесе. Основной целью исследования является определение роли и значения инноваций в повышении качества гостиничных услуг, а также оценка их влияния на эффективность обслуживания. В статье проанализировано значение современных цифровых технологий, автоматизированных систем управления, систем управления взаимоотношениями с клиентами (CRM) и мобильных приложений, применяемых в гостиничной сфере.

Кроме того, на примере деятельности гостиниц Наманганской области изучено современное состояние инновационной деятельности, а на основе эмпирического анализа выявлены факторы, влияющие на качество обслуживания и уровень удовлетворённости клиентов. По результатам исследования обосновано, что внедрение инновационных технологий способствует повышению конкурентоспособности гостиниц, снижению операционных издержек и оптимизации процессов обслуживания. В заключение статьи разработаны практические предложения и рекомендации по развитию отрасли.

Ключевые слова: гостиничный бизнес, инновации, цифровые технологии, качество обслуживания, конкурентоспособность, удовлетворённость клиентов, эффективность управления.



KIRISH

Bugungikunda xizmatlar sohasi, xususan, mehmonxona biznesi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, turistlar oqimining ortishi va iste'molchilarning talablarining murakkablashuvi mehmonxona korxonalaridan xizmat ko'rsatish sifatini doimiy ravishda oshirib borishni talab etmoqda. Ushbu sharoitda innovatsion texnologiyalarni joriy etish mehmonxonalar faoliyatini samarali tashkil etishning muhim omiliga aylanmoqda.

Mehmonxona xizmatlarida innovatsiyalar nafaqat texnologik yangiliklarni, balki boshqaruv, marketing, xizmat ko'rsatish jarayonlari va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni takomillashtirishni ham o'z ichiga oladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, avtomatlashtirilgan rezervatsiya tizimlari, mobil ilovalar va sun'iy intellekt elementlaridan foydalanish mehmonxonalarga operatsion samaradorlikni oshirish va mijozlar ehtiyojlarini aniqroq qondirish imkonini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan bo'lib, bu jarayonda mehmonxona infratuzilmasini modernizatsiya qilish va innovatsion faoliyatni faollashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, hududiy mehmonxonalar faoliyatida innovatsiyalarni joriy etish masalasi dolzarb bo'lib, ularning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Shu bois, mazkur maqolada Namangan viloyati mehmonxonalari misolida innovatsion texnologiyalarning xizmat ko'rsatish samaradorligiga ta'siri ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehmonxona biznesida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish masalasi innovatsiyalar nazariyasi, raqobat ustunligi konsepsiyasi, marketing yondashuvlari hamda turizm iqtisodiyoti doirasida keng o'rganilgan. Ushbu muammo nazariy jihatdan, avvalo, innovatsiyaning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni bilan bog'liq.

Joseph Schumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qiladi. U innovatsiyani yangi mahsulot, yangi texnologiya, yangi bozor yoki yangi boshqaruv shaklini joriy etish orqali "ijodiy vayronkorlik" jarayonini yuzaga keltiruvchi omil deb hisoblaydi. Mazkur nazariya mehmonxona biznesida raqamli bron qilish tizimlari, aqlli boshqaruv platformalari va avtomatlashtirilgan xizmat modellarini joriy etish orqali samaradorlikni oshirishga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Michael E. Porter raqobat ustunligi nazariyasida korxona samaradorligi qiymat zanjiri va xarajatlar ustunligi orqali shakllanishini ko'rsatadi. Uning fikricha, innovatsion texnologiyalar korxonaning ichki jarayonlarini optimallashtirish, xizmat sifatini oshirish hamda differensiallash strategiyasini kuchaytirish imkonini beradi. Mehmonxona biznesida CRM tizimlari, revenue management dasturlari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari aynan shu raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Philip Kotler, John Bowen va James Makens mehmonxona va turizm marketingida innovatsion yondashuvlar mijoz tajribasini boshqarish, xizmatni shaxsiylashtirish hamda raqamli kommunikatsiya kanallaridan foydalanish bilan chambarchas bog'liqligini asoslaydi. Ular xizmat ko'rsatish samaradorligi nafaqat operatsion xarajatlarni kamaytirish, balki mijoz qoniqishini oshirish orqali uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlashini ta'kidlaydi.

C.M. Hall va A. Williams turizmدا innovatsiyalarni tizimli jarayon sifatida ko'rib, mehmonxona sektorida texnologik, tashkiliy va marketing innovatsiyalar o'zaro integratsiyalashgan holda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Ularning nuqtayi nazariga ko'ra, innovatsiyalar xizmatlar sohasida ko'proq jarayon va tashkiliy o'zgarishlar shaklida namoyon bo'ladi.

Mahalliy tadqiqotlarda O'rinov B.X. 2021-yilda mehmonxona xo'jaligida innovatsion faoliyatni boshqarish masalalarini tahlil qilib, raqamli texnologiyalarni joriy etish xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bilan bir qatorda resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirishini asoslaydi. Xodjaye S.A. esa xizmatlar sohasida innovatsion rivojlanishning iqtisodiy mexanizmlarini ochib berib, innovatsiyalarni moliyaviy rag'batlantirish, boshqaruvni optimallashtirish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'laydi.

Dimitrios Buhalis va Rob Law axborot texnologiyalarining turizm menejmentidagi rolini tahlil qilib, onlayn bronlash tizimlari, global tarqatish tizimlari va elektron marketing vositalari mehmonxona biznesida samaradorlikni sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi. Ularning tadqiqotlari raqamli platformalar xizmat ko'rsatish tezligi, aniqligi va shaffofligini ta'minlashini ilmiy jihatdan asoslaydi.

OECD hisobotlarida turizm va kreativ iqtisodiyot integratsiyasi doirasida innovatsion texnologiyalar xizmatlar sektorida qiymat yaratishning asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Norbert Vanhove esa turizm destinatsiyalarining iqtisodiy samaradorligi infratuzilma, boshqaruv sifati va innovatsion salohiyat bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi.



Shunday qilib, tahlil qilingan adabiyotlar mehmonxona biznesida innovatsion texnologiyalarni joriy etish xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishini ko'rsatadi. Innovatsiyalar raqobat ustunligini ta'minlash, operatsion xarajatlarni kamaytirish, mijoz tajribasini yaxshilash hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli yondashuv metodlari qo'llanildi. Tadqiqotning empirik bazasini Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan mehmonxonalarning xizmat ko'rsatish jarayonlari, boshqaruv tizimlari va innovatsion faoliyati haqidagi shartli-statistik ma'lumotlar tashkil etadi.

Empirik tahlilni amalga oshirishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- mehmonxonalarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasini baholash;
- xizmat sifati va mijozlar qoniqishi ko'rsatkichlarini solishtirma tahlil qilish;
- innovatsiyalarni joriy etishdan oldin va keyingi samaradorlik ko'rsatkichlarini taqqoslash.

Tadqiqot doirasida 10 ta mehmonxona faoliyati shartli ravishda o'rganildi hamda ularning innovatsion faolligi past, o'rta va yuqori darajalarga ajratildi. Olingan natijalar asosida umumlashtirilgan xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyati mehmonxonalarda olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi mehmonxonalarda kesimida sezilarli farqlanadi. Tadqiqotga jalb qilingan mehmonxonalarning 30 foizida zamonaviy avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari to'liq joriy etilgan bo'lsa, 40 foizida qisman, 30 foizida esa deyarli joriy etilmagan (1-jadval).

1-jadval. Mehmonxonalarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi

Ko'rsatkichlar	Ulushi (%)
Yuqori daraja	30
O'rta daraja	40
Past daraja	30

Tahlil natijalariga ko'ra, innovatsion texnologiyalar yuqori darajada joriy etilgan mehmonxonalarda:

- mijozlarga xizmat ko'rsatish vaqti o'rtacha 20–25 foizga qisqargan;
- mijozlar qoniqish darajasi 15–20 foizga oshgan;
- operatsion xarajatlari 10–12 foizga kamaygan.

Aksincha, innovatsion faolligi past bo'lgan mehmonxonalarda xizmat sifati va mijozlar qoniqishi nisbatan past darajada qolmoqda. Bu holat innovatsiyalarning xizmat ko'rsatish samaradorligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Raqamli tizimlar va xizmatlarni avtomatlashtirish mehmonxonalarda samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi:

- Xodim xizmatlari samaradorligi: xizmat optimallashtirish dasturlari mijoz so'rovlariga javob berish vaqtini o'rtacha 25% ga kamaytiradi.
- Boshlang'ich texnologiyalar – cloud-PMS (Cloud Property Management Systems): mustaqil mehmonxonalarda orasida ularning qabul qilinishi so'nggi 3-yilda 30% ga o'sdi, bu operatsion ishlarni muvofiqlashtirish va ma'lumot almashinuvini tezlashtiradi.
- Avtomatlashtirilgan energiya boshqaruvi: HVAC tizimlarining avtomatlashtirilishi energiya sarfini 20–45% gacha kamaytiradi.
- Avtomatlashtirilgan inventarizatsiya: ovqat-ichimlik sektorida chiqindilarni 20% gacha kamaytirish mumkin (2-jadval).

2-jadval. Tahliliy ko'rsatkichlar

Texnologiya turi	Samaradorlik o'sishi
Avtomatlashtirilgan xizmatlar	javob vaqtini 25% ga qisqartiradi
Energiya boshqaruvi	20–45% energiya tejash
Cloud PMS	Ma'lumot uzluksizligi 90% kamayadi
Avtomatlashtirilgan inventarizatsiya	chiqindilar 20% kamayadi



Sun'iy intellekt (AI) qurilmalari xizmat sifatiga va jarayon samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi:

- AI-chatbotlar 60% dan ortiq mijoz murojaatlarini (qabul, so'rov, savollar) avtomatik tarzda hal qilmoqda.
- AI orqali shaxsiylashtirilgan takliflar 72% mijozlarda qolish tajribasini yaxshilaydi.
- Mijozlarning 82% mehmonxona brendlarining AI imkoniyatlarini sinovdan o'tkazmoqda yoki joriy etmoqda.
- Avtomatlashtirilgan kiosklar yordamida front-desk kutish vaqti 40% ga kamayadi (3-jadval).

3-jadval. AI samaradorligi statistikasining umumiy tahlili

AI texnologiyasi	Ta'sir
Chatbotlar	60–80% mijoz so'rovlarini avtomatlashtirish
AI-shaxsiy profil	mijoz qoniqishini 58–78% oshirish
Avtomatlashtirilgan kirish	kutish vaqtini 40% qisqartirish

IoT va kontaktless texnologiyalar mehmonxona sanoatida operatsion jarayonlarni tubdan o'zgartirmoqda. 2025-yilga kelib mehmonxonalar 96% kontaktless (aloqasiz) texnologiyalarga investitsiya qilmoqda, bu esa operatsion jarayonlarni tezlashtiradi hamda xizmat sifati barqarorligini oshiradi. IoT tizimlari yordamida prediktiv servis yo'lga qo'yilib, jihozlar nosozliklarining oldi olinadi va xizmat uzilishlari 70% ga kamaytiriladi. Mijozlarning 33% sun'iy yuzni identifikatsiyalash texnologiyasini tezroq check-in jarayoni uchun qo'llashga tayyor ekanligi ham raqamli yechimlarga talab ortib borayotganini ko'rsatadi.

Innovatsion texnologiyalar xodimlar resurslarini samarali boshqarish va tejamkorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. AI yordamida jadval tuzish xodimlarning ortiqcha vaqt sarfini 15% gacha kamaytiradi, RPA (Robotic Process Automation) esa operatsion xarajatlarni 10–15% gacha qisqartirish imkonini beradi. Robot texnologiyalarining joriy etilishi, ayniqsa katta maydonli mehmonxonalarda, uy-xizmat samaradorligini 25% gacha oshiradi.

Innovatsion xizmatlar operatsion ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmay, moliyaviy natijalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Raqamli daromad boshqaruvi tizimlarini qo'llagan mehmonxonalar o'rtacha RevPARni 7–20% ga oshiradi, Cloud PMS va real vaqt monitoring orqali mijoz qoniqish darajasi 68% ga ortadi. Shuningdek, mehmonlarning 45% o'z-o'ziga xizmat tizimi mavjud bo'lgan joylarda qolishni afzal ko'radi, bu esa xizmat ko'rsatish modelining raqamli shaklga o'tishi iste'molchi xulq-atvoriga bevosita ta'sir qilayotganini anglatadi.

Namangan viloyati mehmonxonalari olib borilgan tahlillar innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi bilan xizmat ko'rsatish samaradorligi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mehmonxonalarning 30 foizida innovatsiyalar yuqori darajada, 40 foizida o'rta darajada va 30 foizida past darajada joriy etilgan. Ushbu taqsimot hududda raqamli transformatsiya jarayoni boshlanganini, biroq u hali to'liq tizimli va kompleks tus olmaganini anglatadi.

Innovatsion texnologiyalar yuqori darajada qo'llanilgan mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish vaqti o'rtacha 20–25 foizga qisqargan, mijozlar qoniqish darajasi 15–20 foizga oshgan hamda operatsion xarajatlari 10–12 foizga kamaygan. Bu ko'rsatkichlar texnologik modernizatsiya nafaqat xizmat tezligi va sifati, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshirishini tasdiqlaydi. Xususan, Cloud Property Management System (Cloud PMS) kabi raqamli boshqaruv tizimlari ma'lumotlar oqimini optimallashtiradi va boshqaruv qarorlarini tezlashtiradi, Artificial Intelligence asosidagi yechimlar esa mijozlar bilan o'zaro aloqani avtomatlashtirib, xizmat ko'rsatish jarayonini soddalashtiradi. Shuningdek, Internet of Things (IoT) texnologiyalari jihozlar nosozligini oldindan aniqlash orqali xizmat uzilishlarini kamaytiradi va texnik xarajatlarni optimallashtiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion faolligi past bo'lgan mehmonxonalarda xizmat sifati, tezkorlik va mijozlar sodiqligi ko'rsatkichlari nisbatan past darajada qolmoqda. Bu esa raqobat muhitida ularning pozitsiyasini zaiflashtiradi. Zamonaviy mehmonlar tezkor xizmat, shaxsiylashtirilgan yondashuv va kontaktless texnologiyalarni afzal ko'rishni bozor talabining o'zgarayotganini bildiradi. Demak, innovatsiyalarni joriy etish ixtiyoriy emas, balki strategik zarurat hisoblanadi.

Moliyaviy natijalar ham ushbu xulosani tasdiqlaydi: raqamli daromad boshqaruvi va avtomatlashtirilgan operatsion tizimlardan foydalangan mehmonxonalarda daromadlilik ko'rsatkichlari oshgan. Bu esa xizmat sifati va iqtisodiy natijalar o'rtasida bevosita funksional bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyati mehmonxonalari innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, mijozlar qoniqishini kuchaytirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlashning asosiy omili hisoblanadi. Hudud mehmonxonalari uchun kelgusi bosqich — innovatsiyalarni fragmentar tarzda emas, balki yagona strategik boshqaruv modeli asosida kompleks ravishda tatbiq etishdan iborat.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari Namangan viloyati mehmonxonalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Innovatsiyalar yuqori darajada joriy etilgan mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish tezligi oshgani, mijozlar qoniqish darajasi ko'tarilgani va operatsion xarajatlar kamaygani aniqlandi. Bu esa texnologik modernizatsiya xizmat sifati va iqtisodiy samaradorlik o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Raqamli boshqaruv tizimlari, jumladan, Cloud Property Management System, mehmonxona jarayonlarini avtomatlashtirish orqali ma'lumotlar oqimini tezlashtiradi va boshqaruv qarorlarini samaraliroq qabul qilish imkonini beradi. Artificial Intelligence asosidagi texnologiyalar mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yib, ularning sodiqligini oshiradi. Internet of Things esa texnik jarayonlarni monitoring qilish orqali xarajatlarni kamaytirish va xizmat uzilishlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, innovatsion faolligi past mehmonxonalarda xizmat sifati va raqobatbardoshlik darajasi yetarli emasligi kuzatildi. Bu holat kelgusida bozor ulushining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Demak, innovatsiyalarni joriy etish mehmonxonalarda uchun tanlov emas, balki strategik zarurat hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, mehmonxonalarda kompleks raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish, zamonaviy boshqaruv va AI tizimlarini joriy etish, IoT asosida energiya va texnik nazorat tizimlarini rivojlantirish hamda xodimlarning raqamli kompetensiyasini oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish orqali mehmonxonalarni texnologik modernizatsiya qilish jarayonini qo'llab-quvvatlash zarur.

Umuman olganda, Namangan viloyati mehmonxonalarida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish, mijozlar sodiqligini mustahkamlash va hududning turizm salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shumpeter J. Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
2. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 2008.
3. Kotler P., Bowen J., Makens J. Marketing for Hospitality and Tourism. – Pearson Education, 2016.
4. Hall C.M., Williams A. Tourism and Innovation. – London: Routledge, 2008.
5. O'rinov B.X. Mehmonxona xo'jaligida innovatsion faoliyatni boshqarish masalalari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №4.
6. Buhalis D., Law R. Progress in information technology and tourism management // Tourism Management. – 2008. – Vol. 29.
7. OECD. Tourism and the Creative Economy. – Paris: OECD Publishing, 2014.
8. Xodjayev S.A. Xizmatlar sohasida innovatsion rivojlanishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Fan, 2020.
9. Vanhove N. The Economics of Tourism Destinations. – Routledge, 2017.
10. Ivanov S., Webster C. Adoption of robots and service automation in tourism and hospitality // Tourism Economics. – 2019.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4143188>
12. UNWTO. Global Report on Innovation in Tourism. – Madrid, 2020.
13. Ritchie J.R.B., Crouch G.I. The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective. – CABI Publishing, 2010.
14. Rasulov D.Sh. Mehmonxona xizmatlarida raqamli texnologiyalarning samaradorligi // Servis va turizm. – 2022. – №2.
15. ISO 9001:2015. Quality Management Systems – Requirements.
16. Zeithaml V., Bitner M., Gremler D. Services Marketing. – McGraw-Hill, 2018.
17. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. – 2022–2024-yillar.
18. Kline S.J., Rosenberg N. An overview of innovation // The Positive Sum Strategy. – Washington: National Academy Press, 2015.
19. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari. – www.stat.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
